

## **KASB-HUNARGA OID XALQ MAQOLLARINING KASB-HUNAR DOIRASIDA TASNIFI**

***Bobojonova Dilnoza Oxunjonovna***

*Osiyo xalqaro universiteti*

*“Pedagogika psixologiya” kafedrasи o’qituvchisi*

*E-mail: [bobojonovadilnozaoxunjonovna@oxu.uz](mailto:bobojonovadilnozaoxunjonovna@oxu.uz)*

**Annotatsiya:** Maqol arabcha so’zdan olingan bo’lib, “so’z” ya’ni “otalar so’zi” deb atasak ham bo’ladi. Maqol ibratli so’zdir. Shunday so’zki, so’zga husn beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi. Shuning uchun ham maqol odamlar nutqida har doim ham qo’llaniladi. Kimki uni ko‘p ishlatsa, o’shaning nutqini diqqat bilan eshitadilar.

**Kalit so’zlar:** maqol, kasb-hunar, zargarlik, dehqonchilik, kosibchilik, ovchilik, chilangularlik, suvoqchi.

Ma’lumki, maqollar xalqning ma’naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, turmushi bilan bevosita bog’liq bo’lib, qisqa, ixcham, ma’no jihatidan salmoqdar birliklar sifatida har bir davr ruhiga mos keladi. Chunki hozirgi mustaqillik, milliy qadriyatlarning tiklanish davri so’zlovchidan tilni, ayniqsa, davlat tili maqomiga ega bo’lgan o’zbek adabiy tilini chuqur egallashni, fikrni ixcham, asosli, obrazli va ta’sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Bu esa publisistik va badiiy matnlarda faol qo’llanuvchi maqollarning lingvistik tadqiqiga oid ilmiy tadqiqotlarning hozirgi vaqtida dolzarb va muhimligidan dalolat beradi.

**Kasb** – kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg’uloti turi, muayyan ish turini beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasblar, odatda, shaxsning asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi. Xalq xo’jaligining turlicha ishlab chiqarish tarmoqlarida xalqimizning asrlar bo’yi qilib kelgan ijodiy mehnati jarayonida yaratilgan va yaratilayotgan bir qancha kasb-hunar turlari mavjud. Jumladan:

IX – X asrlarda Movarounnahr va Xorazm aholisining asosiy qismi sug’orma dehqonchilik bilan shug’ullanar edi. Sug’orish tarmoqlari vositasida sug’orilib obod etilgan serunum vohalarda g’allakorlik, sholikorlik, paxtachilik, sabzavotchilik, polizchilik va bog’dorchilik yuqori darajada rivoj topgan edi. Voha hududlarida paxtachilik katta o’rinni egallagan. Qolaversa, bog’dorchilik madaniyati yuksak darajada rivojlangan. Xalqimizda qadimdan sabzavot va poliz ekinlari ham serob bo’lib, qovunlari nihoyatda shirali bo’lgan. Mamlakatda dehqonchilik xo’jaligini rivojlantirishga juda katta ahamiyat berilgan. Qadimdan chorvachilikka alohida e’tibor berilgan. Mamlakatning dasht va tog’oldi yaylovlarida qo’y va echkilar, yilqilar va tuyalar boqilgan. Qishloqlarda qoramollar behisob bo’lgan. Chorvachilik mamlakat aholisini ta’minlabgina qolmasdan, xo’jalikning hamma sohalari uchun ot-ulovlar ham yetkazib bergen. Qadimdan yurtimiz shaharlarida to’qimachilik, kulolchilik, chilangularlik, miskarlik, zargarlik, shishasozlik va duradgorlik kabi kasb-hunarlar rivoj topgan. Ushbu holat esa, shubhasiz, shaharning qiyofasini tubdan o’zgartirgan. Savdo-sotiq jonlangan, boshqa mamlakatlar bilan aloqalar yo’lga qo’ylgan. Turli xil hunarmandchilik tarmoqlarining rivojlanishi natijasida katta-katta gumbazli toq-u ravoqli va peshtoqli imoratlar, ustaxonalar, masjid, madrasa, maqbara, xonaqoh va karvonsaroylar qad ko’targan. Shaharlar esa o’nlab hunarmandchilik markaziga aylanib borgan. Bundan tashqari qog’oz ishlab chiqarish, ko’nchilik mahsulotlari, charm mollari ishlab chiqarish sohasi, kumush va qo’rg’oshin konlari, zarbxonalar ham faoliyat ko’rsatgan.

*Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.*

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Hunarmandchilik sohasining taraqqiyoti natijasida boshqa davlatlarga diplomatik vakillar yuborilib, narsa-buyumlar ayriboshlangan. Yurtimizda yetishtirilgan bo'z, kiyim-kechak, qilich, egar-jabduq, idishlar, zargarlik buyumlari, dori-darmon, quruq meva kabi mollar olib borilgan.

Shaharlar kengayib, hunarmandchilik, tijorat, ma'rifat, ilm-fan hamda madaniyatning markaziga aylandi. Hunarmandchilikning turli tarmoqlari rivoj topib, qo'li gul mohir hunarmandlarning nozik did va ijodiy mahorati bilan yasagan buyum-u asboblari hamda zeb-ziynatlari o'ziga xos yuksak san'at asari darajasiga yetgan. Sug'orma dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning taraqqiyoti o'z navbatida ichki va tashqi tijoratning kengayishiga, tashqi bozor bilan olib borilgan aloqalarning mustahkamlanishiga olib kelgan. Mashaqqatlari mehnat, dehqonchilikning barokati, rohat-u uqubati, yerga egalik qilish munosabatlari xalqimizning turmush tarziga kuchli ta'sir ko'rsatib, insonlarda pok vijdon, sabr-qanoat qilish odobini shakllantirgan. Qadimdan o'zbek milliy hunarmandchiliği sayqallanib, yanada rivoj topib kelmoqda. Xonlik, amirlik davrida ham hunarmandlarning alohida mahallalari bo'lган. Kulolchilik, dehqonchilikdan tortib bo'yochilik-bo'zchilikkacha mavjud bo'lган kasblar hozir avlodlar tomonidan foydalanib kelinmoqda.

**Temirchi** – temirni bolg`alab, undan turli buyumlar yasaydigan usta.

Temirchilik – 1. Kasb oti. Temirchilik bilan ro'zg'or tebratmoq. 2. Temirchilarning do'kon yoki ishxonalari o'rnashgan rasta.

**Tegirmonchi** – tegirmon egasi, xo'jayini yoki tegirmonda ishlaydigan kishi.

Yuqorida nomlari tilga olingan kasblar bilan bog'liq quyidagi maqollar mavjud:

1. Temirchi boltaga yolchimas,

To`quvchi – xaltaga.

2. Etikdo`zning etigi yirtiq,

Temirchining teshasi kemtik.

**Tabib** – 1. Bemorlarni davolovchi mutaxassis, vrach.

2. Zamonaviy meditsina ilmidan bexabar bo`lgani holda bemorlarni ishontirib, ularni bilar-bilmas davolashni o'ziga kasb qilib olgan kishi.

3. Kasb oti.

1. Tabib – tabib emas, boshidan o'tgan tabib.

2. Avom tabib – ofati jon.

3. Oftob kirmagan uyga tabib kiradi.

4. Bilmas tabib jon olar.

5. Tabib tabib emas, dard ko`rgan tabib.

6. Kasal jonning harakatida, tabib pulning harakatida.

7. Kasal kamaysa tabib kasal bo'ladi.

8. Tabibning orig`idan qo`rq,

Mullaning – semizidan.

### **.Musiqachilik asosida shakllangan xalq maqollari**

1. Karnaychidan nima ketdi, bir puf.
2. Karnaychidan oshnang bo`lsa, qulog`ingga paxta tiq.
3. Epsiz sozanda sozin cho`zar.
4. O`Imagan qo`sishchi, erinmagan eshikchi.
5. Kuygan – o`lanchi bo`lar, suygan – laparchi.
6. Dutorsiz baxshi bo`lmas, yomonsiz – yaxshi.
7. Karnaychidan qutulaman desang, oldiga borib anor ye.
8. Surnay chalishni bilmaganning ohangi ko`p.

### **“Sipohi”, “jangchi” leksemalari asosida shakllangan xalq maqollari**

**Sipoh – 1.** Xon, amir saroyida uzoq xizmat qilgan lavozimli kishi, amaldor.

. Jangchi, askar. 3. Shaxmat o`yinida piyodadan katta donalar.

1. Sipohidan oshnang bo`lsa, yoningda boltang bo`lsin.
2. O`qsiz jangchi – qilichsiz qin.
3. Sipohi sirini bildirmas.

9. Ahmoq to`rin bermas.

4. Sipohning boshi ko`prik bo`lsa ham bosib o`tma.

10. 5. Sipohining oshnasi bo`lmas.

6. Sipohi sirin yashirolmas, puchuq - burnin.

7. Dehqon bo`lsang yer boshida bo`l,

Sipoh bo`lsang el qoshida bo`l.

8. Baqa eti go`sht bo`lmas,

Sipohidan do`sht bo`lmas.

Xalqimiz qadimdan o`z farzandlarining faqatgina jismoni yihatdan yetuk va barkamol bo`lishini emas, balki ularning ziyrak, o`tkir xotirali, tez va to`g`ri fikrlovchi inson bo`lishini orzu qilgan. Maqollar xalq donishmandligini ifodalar ekan, insondagi eng axloqiy sifatlar ma`qullanadigan, ma`naviyat tasdiqlanib, har qanday nuqson, illat qoralanadigan o`ziga xos axloq kodeksi sifatida namoyon bo`ladi. Ushbu malakaviy bitiruv ishini yozish davomida qadim ajdodlarimizdan avlodlarga meros bo`lib qolgan o`zbek xalq maqollarini to`plab, kasb-hunar toifasiga ajratish jarayonida quyidagicha xulosalarga kelindi:

Dehqonchilikka oid maqollar soni – 67 ta.

Tabibchilikka oid maqollar soni – 20 ta.

Musiqachilik kasbiga oid maqollar soni – 21 ta.

“Sipohi”, “jangchi” leksemasi qatnashgan maqollar soni – 15 ta.

“Savdogar” leksemasi qatnashgan maqollar soni – 12 ta.

*Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.*

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Tikuvchilik kasbiga oid maqollar soni – 6 ta.

Qassobchilik kasbiga oid maqollar soni – 30 ta.

Dehqonchilik kasbiga oid maqollar soni – 67 ta.

Ovchilik kasbiga oid maqollar soni – 15 ta.

Cho'pon kasbiga oid maqollar soni – 41 ta.

Kosibchilik kasbiga oid maqollar soni – 11 ta.

Bo'zchilik kasbiga oid maqollar soni – 21 ta.

Bo'yoqchilik kasbiga oid maqollar soni – 3 ta.

Kulolchilik kasbiga oid maqollar soni – 10 ta.

Zargarlik kasbiga oid maqollar soni – 17 ta.

Ustachilik kasbiga oid maqollar soni – 18 ta.

Bog'bonchilik kasbiga oid maqollar soni – 5 ta.

Umumiy nom ostida birlashtirilgan kasblarga oid maqollar soni – 16 ta.

Yuqoridagi statistik tahlil natijalariga tayangan holda “Eng ko‘p” maqollar soni dehqonchilik kasbiga oid (67 ta), “Eng kam” maqollar esa bo‘yoqchilik kasbiga oid (3 ta) ekanligini aniqladik. O‘zbek folklorida qadimdan beri rivojlanib kelayotgan maqollarni turli kasb-hunar guruhiга ajratib, ma’lum ma’noda ba’zi bir bo‘shliqlarni to‘ldirdik deb o‘ylaymiz. Balki, biz nazardan chetda qoldirib ketgan maqollar ham mavjud bo‘lishi mumkin. Keyingi ishlarimiz davomida yanada mukammalroq ishlashga harakat qilamiz.

### **Adabiyotlar:**

1. Oxunjonovna, B. D. (2024). OZBEK XALQI TURMUSHI BILAN BOGLIQ KASB-KOR TURLARI (Temirchilik kasb-hunari doirasida).
2. Oxunjonovna, B. D. (2024). TEMIRCHILIK KASB-HUNARIGA OID LEKSEMALARINING XALQ MAQOLLARIDA NAMOYON BO'LISHI.
3. Oxunjonovna, B. D. (2023). MAHMUD QOSHG'ARIYNING «DEVONU LUG'OTIT TURK» ASARI-ILMIY AHAMIYATLI ME'ROS.
4. Oxunjonovna, B. D. (2023). O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING AHAMIYATI.
5. Oxunjonovna, B. D. (2024). RESPUBLIKAMIZDA DAVLAT TILI SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNING AMALIY TAJRIBALARI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 44-49.
6. Oxunjonovna, B. D. (2024). ISH YURITISHDA TIL MADANIYATI VA SO ‘ZLASHUV ODOBING AHAMIYATI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 8-1
7. Oxunjonovna, B. D. (2024). RASMIY USLUBDA O ‘ZBEK TILI: HUJJAT TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 38-43.
8. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILINING ISH YURITISH JARAYONIDAGI AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO ‘NALISHLARI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 52-57.

*Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.*

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

9. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILIDA ISH YURITISHNI O ‘RGATISH JARAYONIDAGI QIYINCHILIKLAR VA ULARNI HAL ETISH USULLARI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 65-71.
10. Oxunjonovna, B. D. (2025). ELEKTRON TIZIMLARDA DAVLAT TILINING QO ‘LLANILISHI VA UNING RIVOJI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 17-23.
11. Oxunjonovna, B. D. (2025). MAMLAKATNING TURLI HUDUDLARIDA ISH YURITISHDA DAVLAT TILINING O ‘ZIGA XOS QO ‘LLANISHI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 10-16.
12. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILIDA ISH YURITISHNI JORIY ETISHNING AMALIY TAJRIBALARI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 3-9.
13. Oxunjonovna, B. D. (2025). RASMIY HUJJATLARNI TUZISHDA DAVLAT TILIDAGI ANIQ TALABLAR VA STANDARTLAR. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 45-51.
14. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH BO ‘YICHA OLIB BORILAYOTGAN SIYOSATNING ISH YURITISH TIZIMIDAGI O ‘RNI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 24-30.
15. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILINI ISH YURITISHDA QO ‘LLASHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUN VA ME’YORIY HUJJATLAR. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 31-37.
16. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILIDA RASMIY USLUBNING O ‘ZIGA XOSLIGI VA UNING TO ‘G ‘RI QO ‘LLANILISHI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 58-64.
17. Oxunjonovna, B. D. (2025). ISH YURITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA DAVLAT TILINING INTEGRATSIYASI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 38-44.
18. Oxunjonovna, B. D. (2025). BOYOQCHILIK HAMDA KULOLCHILIK ASOSIDA SHAKLLANGAN O ‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING TAHLILI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 98-101.
19. Oxunjonovna, B. D. (2024). O ‘ZBEK TILIDA ISH YURITISHNING YANGI TEXNOLOGIK IMKONIYATLARI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 26-31.
20. Bobojonova, D. (2024). OZBEK XALQI TURMUSHI BILAN BOGLIQ MUSIQACHILIK KASB-HUNAR MAQOLLARI TAHLILI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(9), 553-564.